

ELEKTRON DARSLIK LARNING IMKONIYATLARI

Respublika musiqa va san'at kolleji

Zokirov Farxod

Tog'ayev Sarvar

a) Axborot-bilim imkoniyati. O'quv materiallarini ilmiy va ko'rgazmali qilib tasvirlash; tahliliy-sintetikasi; axborotni to'la, tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda tasvirlash, o'quv materialini bir tizimda berish va faollashtirishdan iborat.

b) Psixologo-pedagogik imkoniyati. Muammoli; o'quv materialini o'zlashtirilishining mustahkamligi; ta'limni tabaqalashgan va individualliligi;

moslanuvchanligi va emotsional ta'sirchanligi.

v) Boshqarish imkoniyati. To'la didaktik ta'lim davriyliligi, ta'limni interfaolligi, teskari aloqa, o'z-o'zini boshqarish vazifalarini amalga oshirish.

g) Tashkiliy-texnologik imkoniyatlari. Sinf va sinfdan tashqarida mustaqil ishlash jarayonida darslik bilan ishlash mumkinligi; ishlashda qulaylik; katta hajmdagi axborotni saqlashning osonligi va kitob bilan ishlash uchun zarur maxsus texnik jihozlarni (masalan, kompyuterlarni) mavjudligi.

Elektron darsliklarning asosiy xususiyatlari:

- predmetdagi axborotlarning yaxshi tuzilishga ega bo'lishi;
- o'quv predmetning tuzilishidagi elementlariga gipermatnli, namoyishli, audio va videoizohlarga asosiy mavzularni mos kelishi;
- matn va namoyish qilish bilan bir qatorda, darslikni asosiy bo'limlari bo'yicha o'qituvchilarning o'quv materialini video yoki audioyozuvli bayonlarini bo'lishi;
- rasm, model va chizmalarni tezlikda tushuntirish tizimiga ega bo'lishi va bunda gipergrafikadan foydalanilganligi;
- ko'p oynalik interfeysni qo'llanilishi;
- matn qismlarida zarur manbalarga murojaat etishga mo'ljallangan gipermatn tizimini mavjudligi;
- matn bilan tushuntirish qiyin bo'lgan predmetning boblari qo'shimcha videoaxborot va animatsiyalik kliplar bilan ta'minlanishi;
- audioaxborotlar musiqa bilan olib borilishi;
- o'quvchilar sinf va sinfdan tashqarida bajarishi kerak bo'lgan masala va mashqlar hamda ularning javoblarini berilishi;



• asosiy tushuncha va modullarning izohli lugʻatini mavjudligi va har bir boʻlimdan soʻng oʻquv materialini mustahkamlash uchun savollar berilishi bilan anʻanaviy darsliklardan farq qilishi kerak.

Elektron darslik oʻquv-tarbiya jarayonini jadallashtirishning omillari qoʻyidagilardir:

- bir maqsadga yoʻnaltirilganligini koʻtarish;
- oʻquvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- oʻquv mazmunini axborotli hajmini kengaytirish;
- oʻquvchilarning oʻquv-bilish harakatini faollashtirish;
- oʻquvchilarning oʻquv amaliy darajasini tezlashtirishlardan iborat.

Shuni taʼkidlash kerakki, elektron darslik ishlab chiqish uchun etarlicha katta mablagʻ ishlatiladi. Lekin sekin-asta uning narxi kamayib boradi. Masalan, 1 soatli elektron kurs uchun mutaxassisning 50-500 soatgacha vaqti sarflanadi. Masalan, Dj. Moris 1984 yili 1 soatlik kursga 10.000 \$ ishlatgan boʻlsa, A. Bork 1985 yili 3-5 mln. dollar (6 semestrli oliy matematika kursi) 3-5 marta kam mablagʻ sarflagan.

Ayni paytda yangi axborot texnologiyalari sohasida gipermatn tizimlarini qoʻllash keng quloch yoymoqda. Bunday texnologiyalar asosida anʻanaviy oʻquv matnini yanada takomillashtirilgan oʻquv materialini asosida kengaytirish va chuqurlashtirish, hamda kurslar va animatsion lavhalardan foydalanish yoʻli bilan almashtirish gʻoyasi yotadi. Bunda u yoki bu holda ajratib berilgan matn lavhalari orasida oʻzaro bogʻlanish tugunlari barpo etiladi.

Mutaxassislarining taʼrifiga koʻra, gipermatn inson intellektining katta hajmdagi axborotni esda saqlash qobiliyatini va mazkur axborotlar ichidan kommunikatsiya (muloqot) va tafakkur jarayonlarini assotsiatsiyalash yoʻli bilan qidiruv ishlarini olib borishni imitatsiya (oʻzida aks) qiladi. Boshqacha aytganda, gipermatn murakkab darajada tashkil etilgan oʻquv materiallari tizimi bʻyilib, koʻplab statistik va dinamik axborotlarni oʻzida mujassamlashtiradi hamda umumlashgan tarmoq strukturasi ega boʻladi. Bunda axborot lavhalari rolini matn, grafik, chizma, videolavha, ijrochi dastur va animatsiya (xarakatli jarayon) lar oʻynaydi.

Matnlar esa oʻz navbatida yanada kichik matnlardan tashkil topib, ular «matryoshka» («qoʻgʻirchoq ichida qoʻgʻirchoq») qoʻgʻirchogʻi kabi koʻp marta ichma-ich joylashishlari mumkin. Bir matndan ikkinchisiga oʻtish (chiqarish), R ning tarkibiga kiruvchi maʼlum munosabat orqali amalga oshiriladi. Matnlar orasidagi oʻzaro bogʻlanishlardan tashqari matn va videolavhalar, matn va ijrochi dastur hamda matn va animatsion samaralar orasida ham bogʻlanishlar mavjud boʻlishi shart hisoblanadi.



Bu bogʻlanishlar ham R nisbatlar toʻplamida keltirilgan nisbatlar koʻrinishida berilgan boʻladi. Biz gipermatnlarni graflar-daraxti koʻrinishida tasvirlashimiz mumkin, bunda matnlarning lavhalari, grafik tasvirlar, videolavhalar, ijrochi dasturlar va animatsiyalar doirachalar (grafa tugunlari) koʻrinishida, ular asosidagi munosabatlar esa mos doirachalarni tutashtiruvchi yoʻllar shaklida ifodalanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, gipermatnlardan foydalanishning samaradorligi koʻp jihatdan bogʻlanishi mumkin boʻlgan axborotlarning metodik

nuqtai nazardan maqsadga muvofiqligiga bogʻliq boʻladi. Boshqacha aytganda, R

nisbatlar toʻplami har bir elementga xos bʻyilgan aniq vazifalarning muayyanlashtirilishi, ularning optimallik darajalari bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.A. Abduqodirov, S.Q. Tursunov. Ta'limda axborot texnologiyalari, Toshkent, 2019. - 340 b.

2. Abduqodirov A. A. va boshk. Axborot texnologiyalari.: Akademik litsey va kasb - hunar kollejlari uchun darslik. \ Abdukodirov A., Xaitov A., Shodiev R. - Toshkent: O'zbekiston, 2001.- 250 bet.

